Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Badiiy matnda antroponimlar lingvomadaniy birlik sifatida (Tog‘ay Murod asarlari misolida)

Mohigul Qurbonova*

ANNOTATSIYA

Badiiy asarlarda qo‘llangan ismlar qahramon xarakteri, milliy tafakkur, tarixiy-madaniy hamda ijitimoiy hayotni o‘zida aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Mazkur maqolada Tog‘ay Murod ijodida qo‘llangan antroponimik birliklar, ularning asar mazmunida tutgan o‘rni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Ism ma’nolari va ularning lingvistik hamda madaniy xususiyatlariga doir fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar

atoqli otlar, badiiy matn, asar tili, antroponimlar, taxallus, din, urf-odat, madaniyat.

DOI: 10.5281/zenodo.23278180

Kirish. Tilshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal sur’atlarda rivojlanishni boshlagan antroposentrik g‘oyalar yangidan yangi tilshunoslik sohalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Jumladan, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, neyrolingvistika va boshqa bir qator zamonaviy tilshunoslik sohalari inson shaxsi va olamning lisoniy manzarasini uyg‘unlikda o‘rganuvchi yo‘nalishlar sifatida fan ahli diqqat-e’tiborini jalb etib kelmoqda. Shu jumladan, so‘nggi yillarda tilshunoslikda atoqli otlar va ularning xususiyatlariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, badiiy asarlarda qo‘llangan atoqli otlar va ularning funksional, stilistik, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari borasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Materiallar va usullar. Atoqli otlar, ya’ni onomastik birliklar lingvistik birlik bo‘lish bilan birga, xalqning tarixiy, madaniy, diniy hamda ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda tilshunoslikda onomastik birliklarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish borasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi va bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, taniqli o‘zbek tilshunosi E.Begmatov o‘zbek tili antroponimiyasiga doir, R.Nuritdinova o‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy xususiyatlariga doir, E.Qilichev antroponimlarning stilistik qo‘llanishiga doir, S.Qorayev esa toponimikaga doir salmoqli tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

Onomastik birliklar orasida eng keng tarqalgani bu antroponimlardir. Antroponim – asli grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, antro – odam+onim, ya’ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O‘zbek tilida bu termin o‘rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar qo‘llaniladi [1, 10]. Kishilarning ismi, familiyasi, laqab va taxalluslarini o‘z ichiga oluvchi antoponimlar nafaqat kishilarning nomlari, balki millatning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar ham hisoblanadi. Shu jumladan, antroponimlar kundalik turmushdan tashqari badiiy asarlarda ham ma’lum vazifalar bajarishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda antroponimlar qahramonlarning dunyoqarashi, millati, madaniyati, kasb-kori, individual-psixologik xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi oyna vazifasini bajaradi. Shu boisdan qahramonga ism tanlash jarayoni yozuvchidan ham chuqur tafakkur va iste’dodni talab qiladi. Bu jarayon haqida tilshunos A.Nurmonov

quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Badiiy adabiyotda qahramonlarning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Masalan, “Tohir va Zuhro” dostonida Tohir – pokiza, nuqsonsiz; Zuhro – nurli, ko‘rkam; niyati qora bo‘lgan qahramonga esa Qorabotir deya ism qo‘yiladi. Ko‘rinadiki, ism insonning o‘z zurriyotiga bo‘lgan orzu-niyatining debochasi, badiiy asarlarda esa qahramon xarakteriga ishoradir. Demak, ismda ham gap ko‘p. Ismning tilsimini ochish, ma’nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga egadir” [2, 286].

Muhokama va natija. Badiiy asarlardagi antroponimlarni lingvomadaniy tahlil qilar ekanmiz, taniqli o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan ismlarni eslamaslikning iloji yo‘q. Adib asarlarida ishlatilgan ismlar o‘ziga xos lingvistik hamda madaniy yuklamaga ega bo‘lib, ularni tahlil qilish milliy tafakkur va madaniy merosni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar’, “Oydinda yurgan odamlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Yulduzlar mangu yonadi” kabi qissa va romanlarida qo‘llangan kishi nomlari muallifning aniq badiiy maqsadini ifoda etish bilan birga, qahramonlar yashagan davrning tarixiy, madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy holatini o‘zida aks ettira olgani bilan ham diqqatga sazovordir. Bu kabi birliklar qahramonning kelib chiqishi, hayotdagi o‘rni, kasb-kori, hayot tarzi, atrofidagilarga munosabati, tashqi ko‘rinishi, kiyinishi va hokazolar haqida ma’lumot berishi mumkin. Badiiy asarda ijodkor antroponimik birliklardan turli maqsadlarda foydalangan. Jumladan,

1. Diniy e’tiqod bilan bog‘liq antroponimlar. Bilamizki, tarixda Arab xalifaligining istilolari va islom dinining yurtimizga keng yoyilishi xalqimizning ma’naviyati va madaniyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymagan. Xususan, kishilarga dinga va Allohga oid ismlar qo‘yish ham an’ana tusiga kirdi. T.Murod asarlarida ham bir qator shunday ismlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *Ziyodulla* (Alloh bergan ehson, tuhfa, Alloh umrini uzoq qilib bergan bola), *Fayzulla* (Allohning marhamati, himmati; shafqati, muruvvati yoki Allohning quvnoq, baxtiyor farzandi), *Ibrohim* (payg‘ambar ismi), *Rahmon* (o‘ta mehribon, Alloh ismlaridan biri) (“Ot kishnagan oqshom”), *Xayrulla* (Allohning muruvvati, ehsoni, sahovati) (“Oydinda yurgan odamlar”), *Ismoil* (payg‘ambar ismi) (“Yulduzlar mangu yonadi”) kabi ismlar asrlar davomida xalqimiz ma’naviy, madaniy hayotiga singib ketgan islom aqidalarining kishilar ismida aks etganining bir belgisidir.

2. Xalqning orzu-niyatlari bilan bog‘liq ismlar. O‘zbeklarda farzandli bo‘lish, uning kelajagi, baxt-u iqbolini ko‘rish ollohga, uning amr-u qaror va irodasiga bog‘lash va o‘shanga mos ism qo‘yish yetakchi udumlardan biridir. Shuningdek, o‘g‘il farzand ko‘rish otalar uchun yuksak sharaf va tuhfadir, chunki xalqimiz mentalitetida o‘g‘il farzand avlod davomchisi, oila faxri sifatida qadrlanadi. Buni “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: “Yaratganning o‘zidan davralarni to‘ldirib gursillatib-gursillatib olishadigan o‘g‘il tiladi. Hartugul, beshinchi farzandi o‘g‘il bo‘ldi. Tilab-tilab topganim deya, otini Tilovberdi qo‘ydi.” [3, 105].

3. Oy, kun, bayramlar nomidan yasalgan ismlar. O‘zbek urf-odatlariga ko‘ra chaqaloqqa ism qo‘yish uning kelajak taqdiri, sog‘ligi, baxt-u kamoli uchun xizmat qiladi deya ishoniladi. Chunonchi, madaniyatimizda xosiyatli va muqaddas sanalgan oy, kunlarda tug‘ilgan chaqaloqlarga o‘sha kun yoki oy nomidan yasalgan ismlarni qo‘yish ham odat tusiga aylangan. Bunday ismlarda bir tomondan mana shu go‘dakning tug‘ilgan vaqti, paytiga ishora qilish ma’nosi bor bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu kabi nomlar chaqaloqqa yaxshilik keltiradi, uning sog‘-u salomat va baxtli bo‘lib o‘sishiga garov bo‘ladi, degan e’tiqod mavjud. Kunlar nomidan yasalgan ismlardan biri *Odina* ismi bo‘lib, odatda, haftaning juma kunida tug‘ilgan qiz chaqaloqlarga shu ism qo‘yiladi. Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasida ushbu ismning erkaklarga nisbatan qo‘llanganining guvohi bo‘lamiz. Bundan ayon bo‘ladiki, Odina ismi Surxon vohasida erkaklarga ham qo‘yilar ekan: “Ay, Odina chavandoz, unda qo‘lni ber, o‘zim sovchi bo‘laman! – dedim. – Qaynisinglimni senga olib berib, sen bilan boja bo‘lmasam, Ziyodulla otimni boshqa qo‘yaman” ! [4, 100].

4. Murojaat bilan bog‘liq antroponimlar. Odatda, xalqimiz urf-odatlariga ko‘ra oilada er-xotin bir-birining ismini aytib chaqirmaydi. Bunda yo to‘ng‘ich farzandi yoki kenja farzandining ismini aytib er ayoliga, ayol esa turmush o‘rtog‘iga murojaat qiladi. Bu odatning yorqin misoli sifatida “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi quyidagi parchani keltirishimiz mumkin: “– *Dehqonqul*!– deydi otamiz. – Yuvuqsizlar hukumati desang-da bo‘ladi, Sho‘rolar hukumati desang-da bo‘ladi!

Bizning Surxon tarafda bekalar xo‘jalar ismini atamaydi. Bekalar-da xo‘jalarini atamaydi. Bir-birlarini yo qizlari oti bilan ataydi, yo o‘g‘illari oti bilan ataydi. Otamiz bilan onamiz bir-birlarini mening nomim bilan

ataydi.

– Barcha boradimi *Dehqonqul*,– deydi onamiz” [5, 15].

Xulosa. Yuqoridagi misollardan xulosa qilish mumkinki, Tog‘ay Murod o‘z asarlariga qahramonlar ismini o‘ta sinchkovlik bilan tanlagan bo‘lib, ular o‘zbek xalqining hayot tarzi, an’analari, tarixiy xotirasi va milliy tafakkurini aks ettirishga xizmat qilgan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, so‘nggi yillarda jahon tilshunosligida tadqiqotchilar tomonidan onomastik birliklarni sotsiolingvistik, pragmalingvistik va lingvokulturologik aspektda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu borada badiiy asarlar va ularda qo‘llangan antroponimlarni lingvomadaniy, semantik, stilistik hamda pragmatik jihatdan tahlil qilish jarayoni ularning tub mohiyatini ochishga, badiiy imkoniyatlarini ko‘rsatishga, yozuvchi intensiyasini yetkazib berishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, onomastika sohasi uchun ham qimmatli manba vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.10

[2] Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.286.

[3] Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent, 2022. – B.105.

[4] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – B.100.

[5] Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994. – B.15

[6] Begmatov E. O‘zbek ismlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

[7] Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.